

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

GAFUROV MAVLON KUCHKAROVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNI TO‘PLASH
VA MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

12.00.09. – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv
huquq va sud ekspertizasi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD)

Gafurov Mavlon Kuchkarovich

Jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlash mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarb masalalari.....3

Гафуров Мавлон Кучкарович

Актуальные вопросы совершенствования механизмов собирания и закрепления доказательств в уголовном процессе.....25

Gafurov Mavlon Kuchkarovich

Topical issues of improving the mechanisms for collecting and securing evidence in criminal proceedings.....47

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

GAFUROV MAVLON KUCHKAROVICH

**JINOYAT PROTSESSIDA DALILLARNI TO‘PLASH
VA MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

12.00.09. – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv
huquq va sud ekspertizasi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu909 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasheva Umida Abdilovna,
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Astanov Istam Rustamovich,
yuridik fanlar doktori, professor

Oripov Sobirzoda Sobir o‘g‘li,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 11 dekabrda soat 16:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1201-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “27” noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil “27”-noyabrdagi “10”-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.Q. O‘razaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

N.N. Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda odil sudlovni samarali amalga oshirish uchun jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlashga oid qoidalarga og'ishmay amal qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda 217 A (III)-son rezolyutsiyasi¹ga muvofiq qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir shaxs buzilgan huquqlarini vakolatli sud orqali samarali tiklanishi huquqiga ega ekanligi, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir inson esa uning aybi qonun bilan o'rnatilgan tartibda isbotlanmagunga qadar aybsiz hisoblanishi qayd etilgan. Shu ma'noda, bir tarafdin jinoyat natijasida buzilgan huquqlarni tiklanishiga erishish, ikkinchi tarafdin ayblanayotgan shaxs huquqlarining buzilmasligini ta'minlagan holda odil sudlovni amalga oshirish BMTga a'zo mamlakatlarning oliy maqsadiga aylangan. Biroq, BMT hisobotiga ko'ra, xalqaro miqyosda choralar ko'rilayotganligiga qaramasdan 2021-yilda 79 mamlakatda qo'llanilgan qiynoqlardan jabr ko'rgan 47 ming 469 nafar shaxsga ko'mak ko'rsatilgan².

Jahon mamlakatlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining dalillarni to'plash va mustahkamlash borasidagi vakolatlari, huquq va majburiyatlarini xalqaro andozalarga mos tarzda belgilash, qonunga xilof usullar bilan dalillarni to'plash va mustahkamlash holatlarining oldini olish choralari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, 170 dan ortiq davlatlar ratifikatsiya qilgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar bo'yicha xalqaro pakt³da ham hech kim asossiz hibsga olinishi mumkin emasligi (9-modda), aybi isbotlanmagan shaxs aybsiz hisoblanishi, o'zining himoyasiga tayyorlanish uchun yetarli vaqt va imkoniyatga ega bo'lish, guvohlarga savol berish, o'ziga qarshi ko'rsatuv bermaslik va boshqa huquqlarga egaligi belgilangan (14-modda).

Respublikamizda ham jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayonida inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, tortishuv tamoyilining amalda ro'yobga chiqarilishiga erishish, tergov-surishtiruv jarayonida inson qadr-qimmatining kamsitilishiga, huquqlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslik borasida, shuningdek sohaga xalqaro standartlarni joriy etishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham jinoyat protsessida inson huquqlariga oid umum e'tirof etilgan xalqaro hujjatlardagi dalillarni to'plash va mustahkamlashga aloqador qoidalar yanada takomillashgan holda o'z aksini topdi. Unda "gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi, hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi, agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas"⁴ ekanligi kabi ko'plab ilg'or normalar mustahkamlandi.

¹ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml

² <https://www.ohchr.org/sites/default/files/2022-01/AnnualAppeal2022.pdf>

³ https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml

⁴ Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasi // <http://lex.uz>

Biroq, sud-tergov amaliyoti isbot qilishning birlamchi va asosiy bosqichi hisoblangan dalillarni to‘plash bosqichida ham nazariy, ham amaliy jihatdan muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, sud statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-2022-yillar va 2023-yilning 9 oyi davomida jami 3 672 nafar shaxs oqlangan bo‘lib, ularning 415 nafariga oid ishlar bo‘yicha dalillar nomaqbul deb topilganligi sababli oqlov hukmlari chiqarilgan (*mazkur ishlarning 61,6 foizi prokuratura, 27,9 foizi ichki ishlar organlari tergoviga taalluqli bo‘lgan*)⁵.

Bu holat jinoyat protsessi yakunida qabul qilinadigan qarorlarning qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishiga bevosita ta’sir qiluvchi dalillarni to‘plash jarayonini ilmiy jihatdan kompleks o‘rganishni, huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2020), “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023) farmonlari, “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2018), “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2019), “Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022) qarorlari hamda sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarining ijrosini ta’minlashga, sohada shaxs huquq va erkinliklarini yanada samarali himoya qilishga erishish, qonunchilikdagi mavjud huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish va uni takomillashtirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, isbot qilish, dalillarni to‘plash va mustahkamlash masalalari jinoyat protsessi nazariyasida eng bahsli hamda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘luvchi masalalardan sanaladi. Mazkur yo‘nalishda qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, isbot qilish bilan bog‘liq muammolar ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda bir necha marotaba muhokama qilingan. Shunga qaramasdan, ilmiy bahs-munozaralar hanuzgacha davom etib, isbot qilishning asosiy institutlari bo‘yicha yagona yondashuv shakllanganicha yo‘q.

Mamlakatimiz olimlaridan G‘.A. Abdumajidov, B.A. Azizxodjayev, Z.F. Inog‘omjonova, B.X. Po‘latov, Ye.N. Nikiforova, Yu. Pulatov, E.X. Norbo‘tayev, B.A. Rajabov, U.A. Tuxtasheva, S.M. Raxmanova, B.T. Akramxodjayev, D.M. Mirazov, M.A. Radjabova, D.J. Suyunova, D.B. Bazarova, A.X. Asamutdinov, I.R. Astanov, A.A. Matchanov, B.A. Mo‘minov, B.B. Murodov, B. Ruzmetov,

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2023 yil 12 oktabrdagi 08/800-23 son ma’lumotnomasi.

B.N. Rashidov, G.Z. Tulaganova, Z.M. Abdullatipov, L.Z. Turdiyev, S.B. Xo‘jaqulov, O.M. Madaliyev, Sh.X. Inomjonov va boshqalar isbot qilish, dalillarni to‘plash va mustahkamlashga oid turli muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq qilib, asoslantirilgan g‘oya va takliflarni ilgari surganlar.

Sohaning nazariy va amaliy jihatlari yuzasidan MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. A.A. Popov, A.A. Ryasov, A.D. Geroyev, A.E. Lednev, A.M. Larin, A.N. Axpanov, A.O. Bestayev, A.P. Popov, A.R. Belkin, A.S. Aleksandrov, A.S. Gambaryan, B.T. Bezlepkin, V.A. Gerasimova, V.A. Lazareva, V.L. Shaposhnikov, V.S. Balakshin, V.Ya. Doroxov, Ye.V. Semenkova, Z.Z. Zinatullin, I.A. Popova, I.A. Zinchenko, L.A. Podosinnikova, L.G. Demurchev, M.A. Lapatnikov, M.V. Lapatnikov, N.V. Tyumenseva, N.G. Yeliseyev, N.N. Yegorov, N.P. Sareva, O.A. Mashovets, S.A. Sheyfer, S.S. Alekseyev, P.S. Pastuxov, Yu.A. Averina, Yu.K. Orlov, Yu.K. Yakimovich, Yu.Yu. Vorobeva va boshqa qator olimlar isbot qilish tushunchasi, elementlari, ishtirokchilari, dalillarni to‘plash tushunchasi va bosqichlari, muammolari va rivojlanish istiqbollari masalalarida o‘z ilmiy qarashlarini bayon etganlar⁶.

Bu borada xorijiy davlatlar olimlaridan Andrew Ashworth, Michele Taruffo (Buyuk Britaniya), Ambroise-Casterot Coralie, Bolze Pierre, Lamau Pauline (Fransiya), Hiroshi Fukurai (AQSh), Jorg-Martin Lehle (Germaniya), Mark Pieth (Shveytsariya), Semmelmann Constanze (Shvetsiya), Wibo Van Rossum (Niderlandiya), Kazuko Ito (Yaponiya) qator ilmiy izlanishlar qilganlar.

Jinoyat ishlari bo‘yicha dalillarni to‘plash va mustahkamlash masalalarini mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash, sud-tergov jarayonlarida qonuniylikka, shaxs huquq va erkinliklariga to‘liq rioya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini, amaliyotdagi muammolar tahlilini, umum e‘tirof etilgan xalqaro huquq qoidalari va ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, yanada kengroq o‘rganish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot mavzusi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2019 – 2022 y.y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat protsessida dalillarni to‘plash va mustahkamlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– jinoyat protsessida dalillarni to‘plash va mustahkamlash tushunchalari, ularning isbot qilish jarayonida tutgan o‘rnini tahlil qilish;

– jinoyat-protsessi huquqida dalillarni to‘plash va mustahkamlashning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini o‘rganish;

– surishtiruv va dastlabki tergov organlari hamda sudning dalillarni to‘plash va mustahkamlash borasidagi vakolatlarini tahlil qilish orqali ular faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

⁶ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

– advokatning jinoyat ishlari bo‘yicha dalillarni to‘plash va mustahkamlash jarayonidagi huquqlarini kengaytirish, taraflar tortishuvchanligi tamoyilini amalda ro‘yobga chiqarishga oid muammolarni tadqiq qilish;

– dalillarni to‘plash va mustahkamlash jarayonida qonuniylikning hamda shaxs huquq va erkinliklarining buzilishiga sharoit yaratuvchi huquqiy bo‘shliqlarni aniqlash, shuningdek ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish;

– dalillarni to‘plash va mustahkamlash jarayoniga zamonaviy texnik vositalarning ta‘sirini o‘rganish, amaldagi tartibni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

– sudga qadar ish yuritish davrida dalillarni sud tomonidan oldindan mustahkamlash instituti imkoniyatlarini o‘rganish va uning ijobiy jihatlarini qonunchilikda aks ettirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O‘zbekiston Respublikasi jinoyat protsessida dalillarni to‘plash va mustahkamlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimi tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti jinoyat protsessida dalillarni to‘plash va mustahkamlashga oid qonunchilik hujjatlari normalari va ularni qo‘llash amaliyoti, chet el davlatlari qonunchiligi va tajribasi hamda yuridik fanda mavjud bo‘lgan ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, sotsiologik so‘rov, induksiya va deduksiya, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, huquqni qo‘llash amaliyotini tahliliy o‘rganish, statistik ma’lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaxsni jinoyat ishi bo‘yicha gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun yetarli asoslar mavjud bo‘lgan holatlarda uning tegishli huquqlarini tushuntirmasdan **guvoh sifatida** so‘roq qilishni qonunchilik darajasida taqiqlash lozimligi asoslab berilgan;

protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar shaxsdan biron-bir yozma yoki og‘zaki ko‘rsatuvlar olishni taqiqlashga oid normani qonunchilikka kiritish lozimligi asoslangan;

shaxsni jinoyat sodir etishga **undash** va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyatda **uni ayblashni** jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan isbot qilishda taqiqlanadigan holatlar qatoriga kiritish zarurligi asoslantirilgan;

tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari faqat ular qonun talablariga asosan olingan va shaxsda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yoki tezkor tadbirda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo‘lgandagina sud hukmida dalil sifatida tan olinishi mumkinligini qonunchilikka kiritish kerakligi asoslantirilgan;

gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko‘rsatuvlar olish mazkur jinoyat ishi o‘z yurituvda bo‘lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi shartligini qonunchilikda belgilash lozimligi asoslangan;

shaxsni ushlab, unga protsessual huquqlarini tushuntirish, himoyachidan voz kechish harakatlarini majburiy tarzda video tasvirga tushirishga oid normalarni qonunchilikka kiritish zarurligi asoslantirilgan;

ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilishni qonunchilik bilan taqiqlash lozimligi asoslangan;

mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilarini surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va (yoki) so'roq qilishni (bundan ular bilan bog'liq bo'lgan alohida ish yurituviga ajratilgan jinoyat ishi yoki sudning yozma topshirig'i mavjud bo'lgan hollar mustasno) taqiqlashga oid normalarni qonunchilikda aks ettirish lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

“dalillarni to'plash” jinoyat ishini to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlarni isbotlash maqsadida dalillar, ularning manbalarini qonunchilikda taqiqlanmagan usullar yordamida aniqlash va olishga qaratilgan faoliyat ekanligi va u o'z ichiga dalillarni mustahkamlash elementini qamrab olmasligi asoslantirilgan;

“dalillarni mustahkamlash” isbot qilishning dalillarni to'plashdan keyingi alohida bosqichi ekanligi hamda isbot qilish to'rt bosqichdan, ya'ni dalillarni to'plash, mustahkamlash, tekshirish va baholashdan iborat ekanligi qiyosiy-huquqiy va ilmiy asoslantirilgan;

ushlab turilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumni tibbiy guvohlantirish ularning yoki advokatining iltimosnomasiga asosan 24 soat ichida vaqtincha saqlash va tergov hibsxonalari yoki jazoni ijro etish muassasalari tasarrufida bo'lmagan tibbiy muassasalar xodimlari tomonidan amalga oshirilishi shartligi asoslangan;

himoyachining dalillarni to'plash vakolatlarini kengaytirish, xususan shartnoma asosida ekspertiza o'tkazilishini so'rash yoki mutaxassislarni jalb etish orqali ekspertiza xulosasi yoxud mutaxassisning yozma fikrini olishi mumkinligini belgilash lozimligi yoritilgan;

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o'tkazish jarayonida himoyachining muayyan tergov harakatlarini o'tkazish haqidagi iltimosnomalari, agar ular ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa qanoatlantirilishi kerakligi asoslantirilgan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining tergov davrida guvoh sifatida bergan ko'rsatuvlari dalil sifatida tan olinishi, o'ziga, turmush o'rtog'iga, yaqin qarindoshlariga qarshi qo'llanilishi va ayb asosiga qo'yilishini qonunchilik darajasida taqiqlash zarurligi asoslantirilgan;

“elektron dalil” tushunchasini jinoyat-protsessual qonunchiligiga kiritish, masofadan turib so'roq qilish amaliyotini kengaytirish, jumladan, xorijiy davlatda bo'lgan shaxsni masofadan turib videokonferensaloqa rejimida so'roq qilish tartibini kiritish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda mamlakatimiz va xorijlik olimlar tomonidan foydalanilgan va tavsiya etilgan uslublardan foydalanilgan. Ilmiy-nazariy xulosalar xalqaro ilmiy bazalar va rasmiy manbalardan olingan ishonchli ma'lumotlar asosida shakllantirilgan. Tadqiqot mavzusi yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda jami 1 496 nafar shaxs, jumladan sudyalari, soha mutaxassislari, ilmiy doira vakillari va huquqshunoslar ishtirok etgan. Tadqiqot natijalari yuzasidan ilgari surilgan ayrim taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy etilgan hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan, shuningdek, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, sohaga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda, "Jinoyat-protsessual huquqi" fanini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash va isbot qilish subyektlarining faoliyatini rivojlantirishga oid qonun loyihalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar:

jinoyat ishi bo'yicha shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lgan holatlarda uning tegishli huquqlarini tushuntirmasdan guvoh sifatida so'roq qilishni qonunchilik asosida taqiqlash lozimligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni asosida tasdiqlangan Dasturning 47-bandi hamda 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonunni ishlab chiqishda inobatga olingan (Prezident Administratsiyasining 2021-yil 10-fevraldagi 10-2-633-son ma'lumotnomasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi dalillarni to'plashda qonunbuzilish holatlarini oldini olishga xizmat qilgan;

protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar shaxsdan har qanday yozma yoki og'zaki ko'rsatuvlar olishni taqiqlashga oid norma kiritish lozimligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustda qabul qilingan PF-6041-son Farmonining 4-bandi va 2021 yil 18 fevraldagi O'RQ-675-son Qonun 2-moddasi 12-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (Prezident Administratsiyasining 2021-yil 10-fevraldagi 10-2-633-son ma'lumotnomasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Ushbu takliflarning inobatga olinishi jinoyat protsessida shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan;

shaxsni jinoyat sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyatda uni ayblashni jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan isbot qilishda taqiqlanadigan holatlar qatoriga kiritish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son Farmoni 4-bandining 2-xatboshisi va 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonunning 2-moddasini ishlab

chiqishda inobatga olingan (Prezident Administratsiyasining 2021-yil 10-fevraldagi 10-2-633-son ma'lumotnomasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi isbot qilish instituti normalaridan noto'g'ri foydalanishni oldini olish va odil sudlov vazifalariga erishishga xizmat qilgan;

shaxsda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yoki tezkor tadbirda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog'liq bo'lmagan holda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo'lgandagina tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari sud hukmida dalil sifatida tan olinishi mumkinligini qonunchilikka kiritish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6041-son 2020-yil 10-avgustdagi Farmoni 4-bandining 2-xatboshisi va O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonuni 2-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (Prezident Administratsiyasining 2021-yil 10-fevraldagi 10-2-633-son ma'lumotnomasi va Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Taklifning inobatga olinishi dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishiga xizmat qilgan;

gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan arizalar, tushuntirishlar yoki ko'rsatuvlar olish mazkur jinoyat ishi o'z yurituvida bo'lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishini qonunchilikka kiritish haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonuni 2-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi tezkor-qidiruv tadbirlari davomida dalillarni to'plashning qonuniyligini ta'minlanishiga xizmat qilgan;

shaxsni ushlab, unga protsessual huquqlarini tushuntirish, himoyachidan voz kechish harakatlarini majburiy tarzda video tasvirga tushirishga oid normalarni qonunchilikka kiritishni nazarda tutuvchi taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda qabul qilingan PQ-4551-son qarorining 3-bandi "b" kichik bandi 2-xatboshisini va O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonuni 2-moddasini ishlab chiqishda inobatga olingan (Prezident Administratsiyasining 2021-yil 10-fevraldagi 10-2-632-son ma'lumotnomasi va Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi dalillarni to'plash va mustahkamlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish amaliyotini kengaytirishga xizmat qilgan;

ushlangan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilishni qonunchilik bilan taqiqlash zarurligiga oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonuni 2-moddasi 12-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi

sud-tergov jarayonida fuqarolar huquqlarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan;

mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilarini surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va (yoki) so'roq qilishni (bundan ular bilan bog'liq bo'lgan alohida ish yurituviga ajratilgan jinoyat ishi yoki sudning yozma topshirig'i mavjud bo'lgan hollar mustasno) taqiqlashga oid normani qonunchilikda aks ettirish lozimligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi O'RQ-675-son Qonuni 2-moddasi 12-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan (Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2021-yil 23-fevraldagi 06/1-05/620-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi sud muhokamasi davrida dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayonining tashqi ta'sirlarsiz va obyektiv amal qilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va davra suhbatida muhokama qilingan hamda 2 ta ilmiy to'plamlarda nashr etilib, sinovdan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (2 tasi xorijiy nashrda), 2 ta xalqaro konferensiya to'plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlashning nazariy asoslari va ahamiyati**" deb nomlanib, unda dalillarni to'plash va mustahkamlashning mazmuni, ularning isbot qilish jarayonidagi va, umuman, jinoyat protsessidagi tutgan o'rni va ahamiyati, dalillarni to'plash va mustahkamlashning vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy-huquqiy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot mavzusi yuzasidan olimlarning fikr-mulohazalariga muallifning munosabati aks ettirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining birinchi paragrafi "**Jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlash tushunchasi, ularning isbot qilish**

jarayonida tutgan o‘rni” deb nomlanib, unda muallif dalillarni to‘plash va mustahkamlash tushunchalarining mazmunini ochib berishga, shuningdek ularning isbot qilish jarayonida alohida-alohida o‘ringa ega ekanligini yoritishga harakat qilgan. Amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida (keyingi o‘rinlarda JPK deb yuritiladi) “dalillarni to‘plash” tushunchasi belgilanmagan.

Muallif dalillarni to‘plash tushunchasi yuzasidan olimlarning fikrlarini qiyosiy tahlil qilib, olimlar dalillarni to‘plash tushunchasi o‘z ichiga aniqlash, izlash (*R.S. Belkin, B.A. Rajabov, V.S. Balakshin*), topish (*S.M. Raxmanova, L.D. Kokorev, N.P. Kuznetsov va b.*), shakllantirish (*S.A. Sheyfer, K.B. Kalinovskiy*), olish (*E.E. Kurziner, A. Baratov, Ye.B. Smagorinskaya*), mustahkamlash (qayd etish) (*B.A. Rajabov, L.D. Kokorev, N.P. Kuznetsov va b.*) va saqlash (ishga qo‘shish) (*R.S. Belkin, Yu.K. Yakimovich, A.A. Ryasov*) kabi elementlarni qamrab olishini ajratib ko‘rsatganlarini aniqlagan.

Olimlarning ilmiy qarashlarini, atamalarining lug‘aviy ma‘nolarini hamda JPK normalarining mazmunini (81, 87, 198-moddalar) tahlil qilgan holda dalillarni **aniqlash** va **olish** dalillarni to‘plash faoliyatini to‘liq qamrab olishini ko‘rsatadi va quyidagicha ta‘rifni ilgari suradi:

“Dalillarni to‘plash – jinoyat ishini to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni isbotlash maqsadida dalillar, ularning manbalarini qonunchilikda taqiqlanmagan usullar va vositalar yordamida aniqlashva olishga qaratilgan faoliyat”.

Bundan tashqari, muallif dalillarni mustahkamlash deganda jinoyat ishini to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktik ma‘lumotlarni jinoyat protsessual qonunda o‘rnatilgan shaklda qayd etish va jinoyat ishiga qo‘shish bo‘yicha harakatlarni tushunish mumkinligini yoritadi.

Ko‘plab olimlarning dalillarni mustahkamlash dalillarni to‘plashning tarkibiy elementi ekanligi haqidagi fikrlari bahsliligini qayd etadi va G.Z. Tulaganova, V.S. Balakshin, M. Lupinskiy, M.S. Strogovich, B.B. Xidoyatov, U.A. Tuxtasheva, S.M. Raxmanova, V.Z. Lukashevich, Yu.A. Averina, A.R. Ratinov, N.A. Yakubovich, A. Larin kabi olimlarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlagan holda dalillarni mustahkamlashni isbot qilish jarayonining mustaqil va alohida bosqichi sifatida qarash uchun obyektiv asoslar mavjudligini yoritadi.

Birinchidan, qonunshunosning o‘zi mustahkamlashni dalillarni to‘plashdan alohida ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, JPK 22-moddasida “dalillarni to‘plash va mustahkamlash” deb, bir-biridan ajratib yozilgan bo‘lsa, JPK 95-moddasi uchinchi qismida ularga oid talablar ham ajratib ko‘rsatilgan.

Ikkinchidan, isbot qilish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar vakolatlarining mazmuni dalillarni to‘plash atamasi ularni mustahkamlashni o‘z ichiga qamrab ololmasligini ko‘rsatadi. Xususan, JPK 87-moddasiga ko‘ra, dalillarni to‘plash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud va himoyachi tomonidan amalga oshiriladi. Agar, ko‘pchilik olimlarning nuqtai-nazariga ko‘ra dalillarni to‘plash deganda dalillarni mustahkamlash ham tushuniladi deb hisoblasak, demak himoyachi dalillarni to‘plash huquqiga ega emas. Chunki JPK 90-moddasi talablariga ko‘ra bu tergov va sudning mutlaq vakolati hisoblanadi.

Muallifning tahlillariga ko‘ra, qonunshunos JPK 87-moddasidagi subyektlarning umumiy jihatini inobatga olgan, ya‘ni, ularning barchasi dalillarni aniqlashi yoki olishi mumkin. Shu orqali qonunshunos dalillarni to‘plash deganda aynan nimani tushunish kerakligini bildirgan.

Shunga ko‘ra, dissertant isbot qilish to‘rt bosqichdan, ya’ni dalillarni to‘plash, mustahkamlash, tekshirish va baholashdan iborat ekanligini asoslaydi. Bundan tashqari, dalillarni to‘plash va mustahkamlashni ajratish orqali, qonundagi tushunmovchilikni bartaraf etib, “himoyachi – dalillar to‘plash subyekti hisoblanadi” deb aytish imkoniyati yaratiladi, deb qayd etadi.

Birinchi bobining ikkinchi paragrafi **“O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida dalillarni to‘plashning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda dissertant to‘rt tarixiy bosqichni sanaydi: zardushtiylik ta’limotiga asoslangan qadimgi davr, ilk o‘rta asrlardan to XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlariga qadar shariat qoidalariga asoslangan musulmon huquqi davri, Chor Rossiyasi va Sovet ittifoqi hukmronligi davri va mustaqillik yillari.

Qadimgi davrning asosiy manbasi hisoblangan (*m.avv. VII asrdan keyingi davr*) Avestoning Vendidat kitobida dastlabki huquqiy qoidalar o‘z aksini topgan bo‘lib, unda dalil sifatida sudda aybdorning o‘z aybini bo‘yniga olishi, guvohlarning ko‘rsatmalari, qasam ichish kabilar tan olingan⁷.

Musulmon huquqida ayblanuvchining ko‘pgina huquqlari isbot qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ularga dalillari bilan tanishish, guvoh bilan yuzlashish, aybni har qanday qonuniy usullarda inkor etish huquqlarini kiritish mumkin. Ushbu huquqlar ichida noqonuniy yo‘l bilan olingan dalilni dalillar majmuidan chiqarish huquqi alohida o‘rin egallagan. Dalillar, agar ular musulmon insonning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish yoki shariat qonunlari bilan himoya qilinadigan shaxsiy hayoti bilan bog‘liq huquqlarini buzish orqali olingan bo‘lsa, nomaqbul deb topilgan⁸.

Keyinchalik Chor Rossiyasi davrida mamlakatimiz hududida shariat va odat normalari bilan birgalikda jinoyat-protsessual qonunchilik tizimini kodifikatsiyalashtirgan birinchi qonun hujjati hisoblangan 1864-yil 20-noyabrdagi Sud ishlarini yuritish ustavi amal qilgan. 1922-yilgi RSFSR Jinoyat-protsessual kodeksi 1926 yilga qadar amal qilgan. 1926-yilning 16-iyunida O‘zbekiston SSRning birinchi JPK qabul qilingan bo‘lib, unda dalillarni to‘plash va mustahkamlash “Dalillar haqida” deb nomlangan IV va “Bayonnomalar haqida” deb nomlangan V boblar doirasidagi normalar bilan tartibga solingan. Ushbu kodeks 3 yil amal qilib, 1929-yil 29-iyunidagi O‘zbekiston SSRning yangi JPKda 17 moddadan iborat “Dalillarni to‘plash” deb nomlanuvchi alohida bob keltirilgan va unda dalillar tushunchasi, so‘roq qilish tartibi, joyi, tarjimon ishtiroki, guvohlantirish, ekspertiza o‘tkazish, voqea joyini ko‘zdan kechirish, dalillarni olish tartibi keltirilgan. 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O‘zbekiston SSR JPKda esa “jinoyat ishi bo‘yicha dalillar” deb nomlangan alohida bob nazarda tutilgan bo‘lib, unda jinoyat ishi bo‘yicha isbot qilinishi lozim bo‘lgan holatlar, dalillar tushunchasi, dalillarni to‘plash, baholash tartibi va boshqalar belgilangan. Unda keltirilgan dalillar tushunchasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi JPK 81-moddasida nazarda tutilgan tushunchadan deyarli farq qilmaydi.

⁷ Davlat va huquq tarixi. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – T.: – 20 b.

⁸ С. М. Й. Мухаммад права человека в исламе. М., 2008. – С. 184-205.

Mustaqillik yillarida inson huquqlariga bo'lgan e'tibor yangicha va zamonaviy ahamiyat kasb etib, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish maqsadida qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi. Bu 1994-yilda qabul qilingan JPKda aks eta boshladi. Keyinchalik 2000-yil 14-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual kodekslariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-163-II-son, 2008-yil 31-dekabrda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-198-son, 2018-yil 4-aprelda "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha choratadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-470-son, 2019-yil 23-mayda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'RQ-542-son, 2020-yil 14-mayda "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida" O'RQ-617-son qonunlar dalillarni to'plash va mustahkamlash institutini takomillashtirishga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat-protsessual munosabatlarda dalillarni to'plash, mustahkamlashning huquqiy asoslari va ishtirokchilarning roli**" deb nomlanuvchi ikkinchi bobining birinchi paragrafi "**Dalillarni to'plash va mustahkamlashda surishtiruv va dastlabki tergov organlarining o'rni**"ga bag'ishlangan. Muallif tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalari jinoyat ishlari bo'yicha dalillarning o'rtacha **80 foizi** aynan surishtiruv va dastlabki tergov davrida to'planishini ko'rsatdi.

Muallif dalilning jinoyat ishi bo'yicha o'tayotgan shaxslarning taqdirini hal qiluvchi ahamiyatini, statistik ma'lumotlar (*2021-2022-yillar va 2023-yilning 6 oyida JK 234-moddasi bilan (qonunga xilof ravishda ushlab turish va hibsga olish) - 23 nafar shaxs sudlangan*), *JK 235-moddasi bilan (qiynoq) - 16 nafar shaxs sudlangan*, *Inson huquqlari bo'yicha vakil Ombudsman nomiga 2022-yilda fuqarolardan tergov ishlarini olib borishda qonun buzilish holatlari yuzasidan 846 ma murojaat kelib tushgan*) va olimlar fikrlarini (*Yu.A. Aksenov, D.B. Bazarova, M.A. Lapatnikov, A.O. Bestayev*) inobatga olgan holda surishtiruv va dastlabki tergov organlarining dalillarni to'plash va mustahkamlash faoliyatidagi ayrim muammolarni ko'rsatib, uni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

*Birinchi*dan, amaliyotda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan jinoyatni "**uyushtirish**", turli yo'llar bilan shaxsni jinoyat sodir etishga **undash** yoki jinoyat sodir etilishi uchun "**sharoit yaratish**" orqali sun'iy dalillarni vujudga keltirish va ular asosida shaxslarni ayblash holatlari mavjudligini (*dissertatsiyada sud hukmlaridan ham misollar keltirilgan*) qayd etib, K.K. Klevsov, A.A. Otajonov, S.D. Demchuk kabi olimlarning fikrlarini, shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OESR) O'zbekiston

uchun berilgan tavsiyalari⁹ni qo‘llab-quvvatlagan holda ilmiy ish doirasida isbot qilishda shaxsni g‘ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblashni qonun bilan taqiqlashni taklif qilgan.

Ikkinchidan, muallif sohada shakllangan mavjud amaliyot, qonunchilikdagi bo‘shliqni tahlil qilgan holda hamda P.I. Zinchenko, I.V. Gamazina kabi olimlarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlab, mazmunan ko‘rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilarini surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va (yoki) so‘roq qilishni taqiqlash taklifini ilgari suradi.

Uchinchidan, yopiq muassasalarda saqlanayotgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilardan noqonuniy yo‘llar bilan, jumladan tan jarohati yetkazish, qiynoq usullarini qo‘llash orqali ko‘rsatuv olish holatlarining oldini olish maqsadida erkinligi cheklangan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish yoki tibbiy guvohlantirish ularning yoki advokatining iltimosnomasiga asosan 24 soat ichida vaqtincha saqlash va tergov hibxonalari yoki jazoni ijro etish muassasalari tasarrufida bo‘lmagan tibbiy muassasalar xodimlari tomonidan amalga oshirilishi shartligi haqida normani qonunchilikda belgilash taklifini ilgari suradi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “**Sud isbot qilish jarayonining muhim ishtirokchisi**” deb nomlanib, unda nazariyaning eng bahsli masalalari sirasiga kiruvchi sud tomonidan dalillarni to‘plash masalasi tahlil qilinadi.

Muallif olimlarning fikrini shartli ravishda uch guruhga ajratadi:

birinchi guruh sudni **isbot qilish subyekti emas** deb hisoblovchilar (*V.A. Lazareva, V.S. Shadrin, S.A. Tumashov, V.Bozrov, V.P. Smirnov va b.*);

ikkinchi guruh **sudni isbot qilish subyekti** degan fikrni yoqlovchilar (*A.A. Plashevskaya, V.N. Perekrestov, M.T. Ashirbekov, Yu.K. Orlov va b.*);

uchinchi guruh sudda isbot qilish **majburiyat emas, balki huquq** sifatida qolishi fikrini yoqlovchilar (*S.A. Sheyfer, A.V. Piyuk, A.R. Belkin*).

Bu masalada AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya Federatsiyasi tajribalarini qiyosiy tahlil qilib, sud majlisida ishning taqdirini hal etishni faqatgina taraflarga bog‘lab qo‘yish orqali sudni isbot qilish subyekti maqomidan mahrum qilish va uni faqatgina arbitr yoki kuzatuvchi maqomida qoldirish ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga yordam bermaydi, degan fikrni ilgari suradi.

358 ta ishtirokchi o‘rtasida o‘tkazilgan “Bugungi kunda sudlarda davlat ayblovinini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatning sifati yuzasidan munosabatingiz” deb nomlangan so‘rovnoma ishtirokchilarining 93 foizi “salbiy” munosabat bildirgan.

424 ta ishtirokchi o‘rtasida o‘tkazilgan “Bugungi kunda sudlarda advokatlarning huquqiy himoya choralari ko‘rish borasidagi faoliyatining sifatiga munosabatingiz” deb nomlangan so‘rovnomada ishtirokchilarning 84 foizi “salbiy” munosabat bildirgan.

⁹ Антикоррупционные реформы в Узбекистане. 4-й раунд мониторинга в рамках Стамбульского плана действий по борьбе с коррупцией. ОЭСР, 2019. – С. 259.

Bunday holatlarda, ish bo'yicha har tomonlama qonuniy, asoslangan va adolatli qaror qabul qilish uchun zaruriy choralar ko'rish mas'uliyati o'z-o'zidan **aynan sudning zimmasiga** tushishi tabiiy, deb hisoblaydi.

Shuningdek, muallif sud ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror (hukm) chiqarish maqsadidagina isbot qilish faoliyatida ishtirok etishi lozim, deb hisoblaydi. Shu bilan birga, sud dalillarni to'plash borasidagi huquqidan taraflardan keyin, ya'ni taraflar o'ziga bog'liq barcha choralarni ko'rib bo'lganidan so'ng yoki ular faol bo'lmagan hollardagina foydalanishi ham muhim ekanligini qayd etib, kelgusida, ya'ni taraflarning faolligi darajasini samarali choralar va xalqaro andozalarni joriy etish orqali oshirish yo'li bilan sudni isbot qilish jarayonining majburiy subyekti maqomidan mahrum qilib, faqat **huquq** egasi ko'rinishida qoldirish mumkin bo'ladi, deb hisoblaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "**Advokatning dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayonidagi rolini oshirish**" deb nomlanib, unda muallif himoyachining dalillarni to'plash va mustahkamlash borasidagi imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini tahlil qiladi.

Sohada himoyachi o'z vazifalarini to'laqonli bajara olishi uchun yetarli huquqiy mexanizmlar yaratilmaganligini ko'rsatadi. Jumladan, himoya nuqtai nazaridan advokatning ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash uchun muayyan tergov yoki sud harakatlarini o'tkazishga zarurat tug'ilganda himoyachida birgina instrument – iltimosnoma berish imkoniyati bor. Qonun esa bunday iltimosnomalarni hal etishni to'liq ravishda tergovchi (JPK 377-modda) va surishtiruvchi (JPK 38114-modda)ning ixtiyoriga bog'liq qilib qo'ygan. Ushbu moddalarda "qanoatlantirish" degan so'z uchramaydi. Muallif himoyachining dalillarni to'plash maqsadida muayyan tergov harakatlarini o'tkazish, xususan guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish haqidagi iltimosnomalariga, agar holatlar ish uchun ahamiyatli bo'lsa, surishtiruvchi yoki tergovchi rad javobini berishga haqli bo'lmasligi kerakligini yoritadi. Bunday qoida Belarus Respublikasi JPK 196-moddasida belgilangan.

Bundan tashqari, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida belgilangan huquqni JPKda ham aks ettirib, himoyachiga himoyasi ostidagi shaxsning roziligi bilan, shuningdek, boshqa shaxslarning roziligini olish yoki ularga nisbatan protsessual majburlov chorasini qo'llash talab etilmaydigan masalalar bo'yicha sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlaridan shartnoma asosida ekspertiza o'tkazilishini so'rash (masalan buxgalteriya, qurilish, xatshunoslik, psixologik va h.k.) yoki mutaxassislarni jalb etish huquqini berish maqsadga muvofiq ekanligini yoritadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "Jinoyat protsessida dalillarni to'plash va mustahkamlashda yuzaga kelayotgan ayrim muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari" deb nomlanib, uning birinchi paragrafida "Dalillarni to'plash va mustahkamlashda qonuniylikni, shaxs huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash" masalalari bayon etilgan.

O'tkazilgan so'rovnoma ishtirokchilarning 86 foizi – "surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan dalillarni yetarli darajada to'plash uchun qonun talablariga to'liq rioya qilinmaydi" deb hisoblaydi.

Muallif tomonidan amaliyotdagi real muammolar tahlil qilinib, olimlarning shu sohadagi ilmiy izlanishlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi asosida tegishli takliflar ilgari surildi.

Xususan, gumon qilinuvchi va ayblanuvchining eng asosiy huquqlaridan biri – uning ko‘rsatuv berishdan bosh tortish va ko‘rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo‘lish huquqini buzish holatlarini oldini olish maqsadida shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo‘lgan hollarda uni guvoh tariqasida so‘roq qilishni, shuningdek, shaxsga uning protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar undan biron-bir yozma yoki og‘zaki ko‘rsatuvlar olishni taqiqlash taklifini ilgari suradi.

Buning davomi sifatida dissertant gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining tergov davrida guvoh sifatida bergan ko‘rsatuvlari dalil sifatida tan olinishini, o‘ziga, turmush o‘rtog‘iga, yaqin qarindoshlariga qarshi qo‘llanilishi va ayb asosiga qo‘yilishini taqiqlash lozimligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda dalillarni to‘plashda noqonuniy usullarni qo‘llash uchun sharoit yaratayotgan asosiy sabablardan biri – bu huquqni muhofaza qilish organlari binolarga kirish-chiqishda nazoratni yetarli darajada ta‘minlaydigan, keltirilayotgan shaxslarni hisobini yuritish, ushlab turish muddat o‘tishini hisoblash bo‘yicha samarali mexanizm mavjud emasligidir.

Buni oldini olish uchun muallif **harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar elektron reyestrini** yuritish tartibini joriy etish taklifini ilgari suradi. Unga ko‘ra, mansabdor shaxs har qanday sabab bilan fuqaroni erkin harakatlanish huquqini cheklab, huquqni muhofaza qilish organi binosiga keltirgan paytdan boshlab u haqidagi ma‘lumotlarni elektron ro‘yxatga 3 soat ichida majburiy tarzda kiritishi lozim. Reyestrda ma‘lumotlar huquqni muhofaza qilish organidagi barcha bo‘g‘inlar, Ombudsman, sud va prokuratura uchun **ochiq** bo‘lishi lozim va ular onlayn tarzda tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu orqali jamoatchilik va idoraviy nazorat ta‘minlanadi. Ma‘lumotlarni reyestrda kiritmaslik ushbu shaxslarni noqonuniy ushlab turishga tenglashtirilishi va **bu davrda olingan dalillar nomaqbul deb topilishi** lozim. Shuningdek, muallif ushlangan shaxsning himoyachisi yoki qarindoshlari Ombudsman, sud, prokuratura yoki o‘ziga yaqin huquqni muhofaza qilish organiga kelib murojaat qilgan vaqtda, ular ushlangan shaxs qaysi binoda, qachondan beri va nima asosga ko‘ra ushlab turilganligi haqida darhol reyestrda ko‘chirma ko‘rinishida ma‘lumot berishlari shart, degan fikrni ilgari suradi.

Bundan tashqari, qonunchilikdagi yana bir bo‘shliq, ya‘ni bir jinoyat ishi doirasida ushlab turilgan shaxslar bilan tezkor-qidiruv xodimlarining boshqa ish yuzasidan “suhbati” jarayoni tartibga solinmaganligiga ahamiyat qaratadi. Dissertant, bu kabi holatlar mazkur jinoyat ishi yurituvda bo‘lgan surishtiruvchi, tergovchi yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi shart bo‘lgan tartibni belgilash lozimligini ko‘rsatadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Dalillarni to‘plash va mustahkamlash jarayoniga zamonaviy texnik vositalarning ta‘siri”** mavzusini dissertant ikki yo‘nalishda: *birinchidan*, ularni o‘zini dalil sifatida, *ikkinchidan*, ulardan dalillarni to‘plash va mustahkamlashda texnik vosita sifatida keng qo‘llanilishi nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

